

**Qo‘mitaning 2024-yilda raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini  
himoya qilish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarning  
“YO‘L XARITASI”**

T/ r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Mas’ul ijrochilar
<b>I. Raqobatni rivojlantirish yo‘nalishida</b>			
1.	Ayrim sohalarda xususiy sektorni keng jalb qilish orqali davlat monopoliyasini bekor qilish	<p><b>17 turdagি</b> davlat monopoliyasini bekor qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan amaliy chora-tadbir va “yo‘l xaritalari” ijrosini ta’minlash.</p> <p><i>neft bazalari va avtomobilgarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari;</i>  <i>kimyo mahsulotlari korxonalari;</i>  <i>qurilish materiallari korxonalari;</i>  <i>aeroport infratuzilmasini boshqarish;</i>  <i>iste’molchilarga elektr yetkazib berish (kichik quvvatli tarmoqlar);</i>  <i>iste’molchilarga tabiiy gaz (kichik bosimli tarmoqlar) va suyultirilgan gaz yetkazib berish;</i>  <i>iste’molchilarga ichimlik suv ta’minoti va oqova tizimlarini boshqarish;</i>  <i>ijtimoiy obyektlarga issiqlik ta’minoti xizmatini ko‘rsatish;</i>  <i>avtomobil yo‘llarini qurish va boshqarish;</i>  <i>temir yo‘l vokzallarini boshqarish va xususiy vagonlar bilan ta’minlash;</i>  <i>avtomobil savdo shoxobchalari;</i>  <i>kichik irrigatsiya tizimlarini boshqarish;</i>  <i>chiqindilarni yig‘ish va qayta ishlash;</i>  <i>turizm sohasidagi xizmatlarni sertifikatlashtirish va ularni boshqarish;</i>  <i>arkitektura rejalarini ishlab chiqish;</i>  <i>loyihalashtirish ishlari va injiniring xizmatlari.</i></p>	K.Mamatov, D.Nasirova, U.Xakimov, S.Atamurodov, B.Boboxonov
2.	Tarmoqlarda raqobatning darajasini baholash	Kamida <b>10 ta</b> tovar, moliya va raqamli bozorlarda tahlillar o‘tkazish, bozorga kirish bo‘yicha mavjud to‘siqlarni aniqlash,	D.Nasirova

T/ r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Mas'ul ijrochilar
		<p>bozorlar ishtirokchilari orasida so‘rovnama o‘tkazish va raqobat rivojlanmagan sohalarni aniqlash:</p> <p style="padding-left: 2em;">dori vositalari, jumladan ijtimoiy muhim dori vositalarini ishlab chiqarish va sotish bozorida tahlil o‘tkazish;</p> <p style="padding-left: 2em;">avia tashuvlar xizmati;</p> <p style="padding-left: 2em;">qurilish materiallari, shu jumladan syement ishlab chiqarish;</p> <p style="padding-left: 2em;">maishiy texnika ishlab chiqarish;</p> <p style="padding-left: 2em;">elektr avtomobilarni quvvatlash xizmatlari;</p> <p style="padding-left: 2em;">sug‘urta xizmatlari;</p> <p style="padding-left: 2em;">bank xizmatlari;</p> <p style="padding-left: 2em;">aeroport xizmatlari;</p> <p style="padding-left: 2em;">internet provayderlari xizmati;</p> <p style="padding-left: 2em;">elektron to‘lovlar xizmatlari;</p> <p style="padding-left: 2em;">chakana savdo tarmoqlar xizmatlari;</p> <p style="padding-left: 2em;">onlayn-NKM va (yoki) virtual kassalarga servis ko‘rsatish xizmati.</p> <p>2. Raqobat yetarli darajada bo‘lmagan tarmoq va bozorlarda raqobatni rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqish.</p>	K.Mamatov, hududiy organlar
3.	Iqtisodiyot sohalarida davlat ishtirokini yanada kamaytirish.	<p>1. Davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritayotgan tovar bozorlarni raqobat muhitini tanqidiy o‘rganib, raqobat muhitini yaratish imkoniyati mavjud sohalarda davlat ulushini xususiy sektorga sotish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.</p> <p>2. Davlat ulushi mavjud bo‘lgan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarlar va ko‘rsatilayotgan xizmatlar bozorida (tovar va xizmatlar kesimida) raqobat holatini Herfindahl–Hirschman Index va Concentration Rate metodlaridan foydalangan holda aniqlash.</p> <p>3. Tovar, moliya va raqamli bozorlarini raqobatni rivojlanganligidan kelib chiqib “qizil”, “sariq” va “yashil” toifa bo‘yicha tasniflash metodologiyasini ishlab chiqish.</p>	D. Nasirova Raqobat siyosati va iste’molchilar huquqlari tadqiqot markazi

T/ r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Mas'ul ijrochilar
4.	Tabiiy monopoliya sohalari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan va raqobatni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud bo'lgan tovar bozorlarida tahlil o'tkazish.	Tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan monopollashtirilgan yondosh tovar bozorlarida raqobat muhitini baholash va tahlil natijasi yuzasidan raqobatni rivojlantirish bo'yicha " <b>Yo'l xaritalarini</b> " ishlab chiqish.	D. Nasirova, U.Xakimov, hududiy organlar
5.	Tadbirkorlik subyektlariga tartibga solish yukini qisqartirish va ularning tovar va moliya bozorlariga erkin kirishidagi mavjud to'siqlarni bartaraf etish.	<p>1. Tovar va moliya bozorlariga tadbirkorlik subyektlari kirib kyelishi nisbatan murakkab bo'lgan <b>2 ta</b> sohadagi normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek tarmoqlarga doir texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni "tartibga solish gilotinasi" usulida yalpi xatlovdan o'tkazish.</p> <p>2. Me'yordan oshiq talablar, qiyinlashtiruvchi normalar, tadbirkorlik subyektlarining bozorlarga erkin kirishiga hamda tovar va xizmatlarning erkin harakatlanishiga to'sqinlik qiluvchi mavjud hujjatlarni bekor qilish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>3. Tartibga solish yukini qisqartirishga qaratilgan yangi institusional vositalarni joriy etish, shu jumladan ruxsat beruvchi jarayonlar va lisenziyalarni javobgarlikni majburiy sug'urtalash bilan almashtirish bo'yicha taklif ishlab chiqish.</p>	S.Atamuratov, D.Nasirova, K.Mamatov, Sh.Shadmankulov
6.	Tovar va moliya bozorida amaldagi eksklyuziv huquqlarni bekor qilish.	<p>1. Amaldagi qonun hujjatlarida mavjud <b>13 ta</b> xo'jalik yurituvchi subyektlarga taqdim etilgan eksklyuziv huquqlar bo'yicha tahlil amalga oshirish.</p> <p>2. Tahlil natijalari bo'yicha eksklyuziv huquqlarini bekor qilish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash.</p>	S.Atamuratov D.Nasirova
7.	Alohida xo'jalik yurituvchi subyektlarga taqdim etilgan soliq, bojxona va boshqa ko'rinishdagi	1. Alohida xo'jalik yurituvchi subyektlarga davlat tomonidan taqdim etilgan soliq, bojxona va boshqa imtiyozlarni aniqlash maqsadida normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan o'tkazish;	S.Atamurodov, D. Nasirova, Sh.Shadmankulov

T/ r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Mas'ul ijrochilar
	imtiyozlarni raqobatga ta'sirini baholash.	2. Xatlov natijalari bo'yicha raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi imtiyozlarni bekor qilish yoki barcha bozor ishtirokchilarga tatbiq etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish	
8.	Respublik ijro etuvchi organlar va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan raqobatga zid qaror qabul qilish amaliyotini oldini olish	Yil yakuniga qadar joyiga chiqqan holda Jizzax, Surxondaryo va Toshkent viloyati hokimliklari, Transport vazirligi, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan qabul qilayotgan qarorlarini o'rganish va raqobatga zid qarorlar aniqlanganda ularni bekor qilish bo'yicha ko'rsatma berish.	S.Atamuratov, Hududiy organlar
9.	Raqamli platformalar faoliyatiga nisbatan monopoliyaga qarshi tartibga solish	1. Ustun mavqega ega hamda ustun muzokara kuchiga ega raqamli platformalarni aniqlash va ro'yxatini shakllantirish;  2. Ustun mavqega ega hamda ustun muzokara kuchiga ega raqamli platformalaridan foydalanish bo'yicha ofertalarni tahlil qilish va kamshituvchi normalarni aniqlash va chora ko'rish.	D.Nasirova  U.Xakimov, D.Botirov
10.	Mustaqil bozor regulyatorlari institutini joriy etish	1. Jahon banki ishtirokidagi "Institusional salohiyatni rivojlantirish" loyihasi mustaqil bozor regulyatorlari institutini joriy etish " <b>Yo'l xaritasi</b> " loyihasini ishlab chiqish.	U.Xakimov A.Kaypnazarov
11.	Raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini qo'llash bo'yicha sud amaliyotini takomillashtirish	1. Yetakchi xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini qo'llash bo'yicha iqtisodiy va ma'muriy sudlar sudyalarining raqobat to'g'risidagi ishlarni ko'rish sohasidagi ko'nikmalarini yanada oshirishga qaratilgan seminar va treninglarni tashkillashtirish, iqtisodiy va ma'muriy sudlar sudyalari malakasini oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etish.  2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Raqobatga oid ishlarni ko'rib chiqishning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori loyihasini ishlab chiqish.	Sh.Shadmankulov A.Kaypnazarov Markaziy apparat tarkibiy bo'linmalari rahbarlari

T/ r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Mas'ul ijrochilar
12.	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining huquqiy qo‘llanishi tezkorligi va ta’sirchanligini oshirish.	<p>1. Raqobat va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini qo‘llash maqsadida tadbirkorlik sub’yektlaridan ma’lumot talab qilib olish va tahlil qilish, nazorat xaridi va “sirli mijoz” tadbirlarini tegishli vakolatli organlar bilan kelishmasdan va ularni xabardor qilmasdan amalga oshirishga ruxsat berish bo‘yicha amaldagi qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>2. Raqobatga qarshi xatti-harakatlar, raqobatga qarshi kelishuvlar va muvofiqlashtirilgan harakatlar haqida ma’lumot taqdim etgan shaxslarni oshkor etmaslik hamda mukofotlash tizimini joriy etish.</p>	Sh.Shadmanqulov B.Boboxonov, U.Xakimov, S.Atamurodov, U.Davlatov, K.Mamatov  B.Boboxonov
<b>II. Davlat xaridlari va birja savdolari shaffofligini ta’minlash</b>			
13.	Davlat xaridlari jarayonida raqobatni ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish	<p>Davlat xaridlari jarayonida qonun buzilish holatlariga yo‘l qo‘ygan ishtirokchilarni insofsiz ijrochilarining yagona reyestriga kiritish va chiqarish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish hamda ushbu mexanizmni barcha xarid operatorlarida amal qilishi yuzasidan vakolatli organga takliflar kiritish.</p> <p>1. Davlat xaridlari ishtirokchilarni javobgarligini oshirish maqsadida ular tomonidan qonun buzilish holatlariga yo‘l qo‘ygan taqdirda insofsiz ijrochilar reyestriga kiritish bo‘yicha takliflar tayyorlash;</p> <p>2. Davlat xaridlari sohasidagi qonunchilik hujjatlarini xatlovdan o‘tkazish va takomillashtirish bo‘yicha taklif tayyorlash.</p>	B.Boboxonov
14.	Davlat xaridlarda Yagona yetkazib beruvchilar reyestrini shakllantirish tartibini takomillashtirish.	Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish tartibini ko‘rib chiqish va raqobatni rivojlantirish yuzasidan takliflarni Iqtisodiyot va moliya vazirligiga kiritish.	D.Nasirova

T/ r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Mas'ul ijrochilar
15.	Amaldagi <b>birja savdolarini o'tkazish</b> to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish.	<p>Birja savdolarida yuqori likvidli va (yoki) monopol turdag'i mahsulotlarni sotish hamda birja savdolarini davlat tomonidan nazorat qilish tartibi to'g'risidagi <b>Yagona Nizom</b> ishlab chiqish.</p> <p>Bunda, quyidagilarni nazarda tutish:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>mahsulotlarni savdolarga chiqarish jadvallari ishlab chiqilishida spot va forward shartlar asosida qo'yilishi bo'yicha qat'iy mezonlarni belgilash;</li> <li>mahsulotlarni birja savdolariga joylashtirish grafiklarni ishlab chiqish va hajmini shakllantirish tartibi;</li> <li>tovar-xom ashyo birjalarida sotilmay qolgan mahsulotlar hajmlari, bekor qilingan bitimlar hajmlari, xaridor tomonidan tanlanmagan yoki amalga oshirilgan bitimlar bo'yicha sotuvchi tomonidan yetkazib berilmagan hajmlar, sotuvchining o'zi tomonidan keyingi birja savdolariga takroran qo'yishda sotuvchi tomonidan avans summasi kiritilmasligi imkoniyatini belgilash;</li> <li>birjada tuzilgan bitim va shartnomalarni jarimlar qo'llanmasdan bekor qilinishini taqiqlash va boshqalar.</li> </ul>	U. Davlatov, Sh.Shadmankulovhu dudiy organlar
16.	Tovar-xom ashyo birjasini ishtirokchilari (broker, treyder va boshqalar) uchun malaka sertifikatlarini berish tartibini joriy etish.	<p>Normativ-huquqiy hujjatlarda Tovar-xom ashyo birjasini ishtirokchilari (broker, treyder va boshqalar) uchun malaka sertifikatlarini berish hamda ularni ushbu maqsadda attestatsiyadan o'tkazishning tartibini joriy etish.</p> <p>Qo'mita huzuridagi Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi orqali tovar-xom ashyo birjasidagi professional ishtirokchilarining ijro etuvchi organi rahbari, tovar-xom ashyo birjasidagi professional ishtirokchilarida, tovar-xom ashyo birjasining bo'limlarida va komplayens xizmati mutaxassislarini tovar va moliya bozorlarida tadqiqotlarni o'tkazish, narxlar kon'yunkturasini tahlil qilish, birjada sotiladigan tovarlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish va kadrlar malakasini oshirish bo'yicha o'qitish yo'lga qo'yish.</p>	U. Davlatov, T.Abdurashidov, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi

T/ r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Mas'ul ijrochilar
17.	Ichki bozorda mahsulotlar realizatsiyasi holatlarini tahlil qilish hamda manipulyasiyalarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. <b>Go'sht, sut va guruch</b> mahsulotlari realizatsiyasi holatini tahlil qilish.</li> <li>2. <b>Parranda go'shti</b> va <b>tuxum</b> mahsulotlari realizatsiyasi holatini tahlil qilish.</li> <li>3. Paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan ishlab chiqarilgan <b>texnik chigit</b> va <b>paxta tolasi</b> mahsulotlari realizatsiyasi holatini tahlil qilish.</li> <li>4. Yog'-moy korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan <b>o'simlik yog'i, shrot va sheluxa</b> mahsulotlari realizatsiyasi holatini tahlil qilish.</li> <li>5. <b>Bug'doy va un</b> mahsulotlari realizatsiyasi holatini tahlil qilish.</li> <li>6. <b>Benzin</b> mahsuloti realizatsiyasi holatini tahlil qilish.</li> </ol>	U. Davlatov
<b>III. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida</b>			
18.	Tabiiy monopoliya subyekti sifatida e'tirof etilgan korxonalar tomonidan majburiy xizmat ko'rsatilishi kerak bo'lган иste'molchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati yuzasidan o'rganishlar o'tkazish	<p>Tabiiy monopoliya subyekti sifatida e'tirof etilgan korxonalar tomonidan lozim darajada xizmat ko'rsatilishini quyidagi sohalar kesimida o'rganish:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Elektr ta'minoti bo'yicha;</li> <li>– Suv va kanalizatsiya bo'yicha;</li> <li>– Tabiiy gaz ta'minoti bo'yicha;</li> <li>– Issiqlik ta'minoti bo'yicha;</li> </ul> <p>Shuningdek, o'rganish natijalari va asoslangan takliflar bo'yicha Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 24-dekabrdagi 277-son qaroriga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.</p>	U.Xakimov hududiy organlar

T/ r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Mas'ul ijrochilar
19.	Tabiiy gaz ta'minoti korxonalarini tomonidan tadbirkorlik subyektlariga asossiz qarzdorlik hisoblanishi va asossiz tarmoqdan o'zish holatlari bo'yicha o'rganishlar o'tkazish.	<p>"Hududgazta'minot" AJdan so'rov asosida ma'lumot olgan holda o'rganishlar o'tkazish.</p> <p>Noreal qarzdorlikka olib keluvchi sabablarni bartaraf etish bo'yicha "Hududgazta'minot Korporativ tizimi" dasturiga o'zgartirish kiritish yuzasidan taklif ishlab chiqish va kiritish.</p>	U.Xakimov, hududiy organlar
20.	Elektron tijorat operatorlari tomonidan iste'molchilarga taqdim etilayotgan ommaviy ofertalarini qonunchilik talablariga muvofiqligini o'rganish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Elektron tijorat platformalarining amaldagi ommaviy oferta shartnomalarini tahlil qilish;</li> <li>2. Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha takliflar tayyorlab elektron platformalarni jalb etgan holda kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish.</li> </ol>	D.Botirov, B.Sharipov, A.Raupov
21.	Iste'molchilar tomonidan ipoteka, avtomobil va iste'mol kreditlarini muddatidan oldin qaytarganda sug'urta mukofotini to'liq yoki qisman qaytarish holatlari bo'yicha o'rganishlar o'tkazish.	<p>Kreditlar muddatidan oldin qaytarilganda sug'urta mukofotlarini to'liq yoki qisman iste'molchiga qaytarish bo'yicha tahliliy ma'lumotnomasi va takliflar tayyorlash.</p> <p>Qonunchilik buzilish holatlari aniqlanganda tegishli choralar ko'rish va jamoatchilikni xabardor etish.</p>	D.Botirov, F.Madaminov
22.	Ko'p qavatli uylarda Boshqaruv servis kompaniyalari (BSK) tomonidan aholiga xizmat ko'rsatishda iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunchilik talablariga riosa etilganligi o'rganish	<p>Hududlar kesimida BSKlar tomonidan tuzilgan shartnomalar, ularda belgilangan tartibda ko'rsatilishi lozim bo'lgan xizmatlarning ko'rsatilganligi tahlil qilish.</p> <p>Aholidan olingan to'lovlarni belgilangan tartibda va hajmda ishlatilishi va hisoblarni yoritib borish tizimi o'rganish.</p> <p>BSK tomonidan aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarni shaffof tizimlarda yoritib borish, xizmat narxlarini shakllantirishda aholining takliflarini inobatga olish bo'yicha takliflar va axborot xati ishlab chiqiladi.</p> <p>O'rganishlar natijalari bilan qonunchilik buzilish holatlari aniqlanganda tegishli choralar ko'rish.</p>	D.Botirov, O.Sadullayev

T/ r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Mas'ul ijrochilar
23.	Hududlarda iste'molchilarga maishiy chiqindi tashish xizmatlarini ko'rsatishda qonunchilik talablariga rioya qilinishi yuzasidan o'rganish o'tkazish.	<p>Aholiga maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va holati, shu jumladan qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish grafiklariga rioya qilinishi va iste'molchilardan ko'rsatilmagan xizmat uchun pul olinishi holatlari yuzasidan o'rganish va tahlillar o'tkazish.</p> <p>O'rganishlar natijalari bilan qonunchilik buzilish holatlari aniqlanganda tegishli choralar ko'rish.</p>	D.Botirov, O.Sadullayev
24.	Biologik faol qo'shimcha (kelgusida BFQ) hamda oziq-ovqat qo'shimchalarini sotishda iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>BFQ hamda oziq-ovqat qo'shimchalari bo'yicha murojaatlarni tahlil qilish.</li> <li>BFQ hamda oziq-ovqat qo'shimchalarini ro'yxatga olishda ularning tarkibi bo'yicha me'yorlarning belgilash yuzasidan taklif kiritish.</li> <li>BFQ va oziq-ovqat qo'shimchalarini hozirda sport klublarida sotilishi va yoshga doir cheklavlarga amal qilinishini o'rganish hamda takliflar ishlab chiqish.</li> <li>Dori vositalari va BFQ hamda oziq-ovqat qo'shimchalari reklamasini o'rganish.</li> </ol>	D.Botirov, B.Sharipov,
25.	Iste'molchilarga suyultirilgan gaz va gaz ballonlari yetkazib berish xizmatlarini ko'rsatish shu jumladan belgilangan grafiklarga va tariflarga, shartnoma shartlariga rioya etilishi yuzasidan o'rganish va tahlillar o'tkazish.	<p>Gaz ta'minoti korxonalari tomonidan aholiga suyultirilgan uglevodorod gazini belgilangan muddatlarda va hajmlarda yetkazilishi, avtotransport vositalari bilan ta'minlanganligi, foydalilanayotgan tarozilar soni hamda tarozilarning davlat qiyoslash ko'rigidan o'tkazilganligini, shuningdek gaz to'ldirish shoxobchalarining joriy quvvati va mavjud gaz balonlarini to'ldirish imkoniyatini o'rganish va tahlil qilish.</p> <p>O'rganishlar natijalari bilan qonunchilik buzilish holatlari aniqlanganda tegishli choralar ko'rish.</p>	D.Botirov, O.Sadullayev
26.	Mahsulotlar sifatini nazorat qilish maqsadida nazorat xaridlarini o'tkazish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>Nazorat xaridi reja grafigiga amal qilinishini nazorat qilish;</li> <li>Nazorat xaridi natijalari bo'yicha sifatsizligi aniqlangan mahsulot sotuvchi va ishlab chiqaruvchilarga tegishli choralar</li> </ol>	D.Botirov, B.Sharipov, A.Raupov

T/ r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Mas'ul ijrochilar
		<p>ko‘rishni tashkil etish. Bunda, iste’molchilarning nomuayyan doirasida huquqlari buzilishini oldini olish va buzilgan huquqlarini tiklash choralarini ko‘rish.</p> <p>3. O‘tkazilgan nazorat xaridi natijalari bo‘yicha ko‘rilgan choralarini OAVda yoritish.</p>	
27.	Respublikamizda ijtimoiy tarmoqlar orqali beriladigan onlayn reklama bozori tahlil qilish.	<p>Onlayn - platformalar, ijtimoiy tarmoqlar a’zolarining faoliyatini tartibga solish, onlayn reklamalar hisobini yuritish, ularni identifikatsiya qilish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish masalalari bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.</p> <p>Xorijiy davlatlar tajribasi asosida onlayn -platformalar faoliyatini tashkil etish, onlayn reklamalar uchun qo’shimcha talablarni joriy qilish bo‘yicha qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish</p>	D.Botirov, Sh.Maxamadaliyev
28.	Iste’molchilar huquqlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarning (kelgusida NNT) faoliyati takomillashtirish.	<p>Xorijiy davlat tajribasini o’rgangan holda NNT larni iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdagi ishtiroki va rolini oshirish, Qo’mita va NNTlar bilan o’zaro munosabatlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.</p> <p>Iste’molchilar huquqlarini buzilishi yuzasidan kelib tushayotgan murojaatlarni ko‘rib chiqishda NNT va hududiy boshqarma xodimlarini salohiyatini va malakasini oshirish maqsadida o‘quv seminarlar samarali tashkil qilish.</p> <p>Seminarlarni muvoffaqiyatli yakunlagan NNTning iste’dodli xodimlar bilan hamkorlikda iste’molchilar huquqlarini buzilishi bo‘yicha muammolarni amaliyotda ko‘rib chiqish va choralar ko‘rish.</p>	D.Botirov
29.	O‘zbekistonda Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish strategiyasini ishlab chiqish.	1. Xalqaro ekspert tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarni tahlil qilish, ilg‘or xorijiy davlatlarni eng yaxshi tajribalarini o‘rganish;	D.Botirov, B.Sharipov

T/ r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Mas'ul ijrochilar
		<p>2. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish Strategiya loyihasini ishlab chiqish;</p> <p>Bunda, normativ-huquqiy hujjalarga tegishli o'zgartirish, nodavlat notijorat tashkilotlari vakolatlari, ularni sohani tartibga solishdagi o'rni hamda rolini oshirishni nazarda tutish.</p>	
30.	Iste'molchilarni huquqiy va moliyaviy savodxonligini oshirish.	<p>Iste'molchilarni qiy nab kelayotgan sohalar (<i>sog'lioni saqlash, xizmatlar ko'rsatish, kommunal va qurilish hamda savdo</i>) sohalarda tizimli muammolarni hamda uning kelib chiqish sabablarini o'rganish va yechim topish bo'yicha OAV, ijtimoiy tarmoqlarda ochiq muloqotni yo'lga qo'yish.</p>	D.Botirov, B.Sharipov, F.Madaminov, A.Raupov, O.Sadullayev
31.	Reklama bozorida iste'molchilar huquqlari himoyasini yanada kuchaytirish maqsadida mahsulotlarni sotishda reklama orqali o'tkaziladigan turli xil rag'batlantiruvchi aksiyalarni o'tkazishni tahlil qilish.	<p>Rag'batlantiruvchi aksiya natijalarini e'lon qilish shartlarini, aksiya doirasida reklama qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxini sun'iy ravishda oshirmslik masalasi bo'yicha talablarni belgilash. Yuzasidan takliflar ishlab chiqish</p> <p>Har xil rag'batlantiruvchi tadbirlar (aksiyalar, imtiyozli xaridlar, lotereyali xaridlar, ovoz berish orqali xaridlar va boshqalar)ni tartibga solish maqsadida normativ-hujjaloyihasi ishlab chiqish.</p>	D.Botirov, Sh.Maxamadaliyev
32.	Qo'mita tomonidan inson salomatligiga to'g'ridan-to'g'ri xavf tug'diruvchi muddati o'tgan, yaroqlilik muddati ko'rsatilmagan mahsulotlarni sotilishi aniqlangan holatlarga aybdor shaxslarga nisbatan chora ko'rish jarayonini soddalashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	<p>Sog'likka xavf tug'diruvchi muddati o'tgan, yaroqlilik muddati ko'rsatilmagan mahsulotlarni sotilishi monitoring qilish jarayonlarini tahlil qilish;</p> <p>qoidabuzarlik aniqlanganda Qo'mita tomonidan ma'muriy bayonnomaga rasmiylashtirmasdan qaror chiqarish bo'yicha Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksga o'zgartirish kiritish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;</p> <p>takliflar ma'qullangan taqdirda Qonunchilikka o'zgartirish kiritish bo'yicha loyihami belgilangan tartibda ishlab chiqish.</p>	D.Botirov, B.Sharipov, A.Raupov

T/ r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Mas'ul ijrochilar
<b>IV. Qo‘mita faoliyatini raqamlashtirish</b>			
33.	Davlat xaridlarida manfaatlar to‘qnashuvi, affillanganlik, raqobatga qarshi kelishuv va muvofiqlashtirilgan harakatlarni avtomatik tarzda aniqlash tizimini joriy qilish.	<p>1. Monopoliyaga qarshi kurashish organi axborot tizimlarini tegishli vazirlik va idoralar hamda elektron tizim operatorlari ma’lumotlar bazalari (e-ombor, xt.xarid.uz, xarid.uzex.uz, cooperation.uz, new.birdarcha.uz, fo.birdarcha.uz) bilan to‘liq integratsiya qilish.</p> <p>2. Bu orqali ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlarning narx shakllanishi zanjirining barcha bo‘g‘inlarini (ishlab chiqarish yoki import – birja – ulgurji – chakana savdo) monitoring qilish imkoniyatini beruvchi modulni ishga tushirish.</p>	B.Tillabekov, B.Boboxonov, “Raqamli transformatsiya va autsorsing markazi” DUK
34.	Tovar, moliya va raqamli bozorlarni tahlil qilish jarayonini elektronlashtirish.	<p>1. Adliya vazirligining Tadbirkorlik sub’yektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishning avtomatlashtirilgan tizimi <a href="http://partner.birdarcha.uz">partner.birdarcha.uz</a> ma’lumotlarini Qo‘mitaning <a href="http://fairtech.uz">fairtech.uz</a> yagona axborot tizimiga integratsiya qilish.</p> <p>2. Davlat yordamini raqobatga ta’sirini doimiy baholab borish uchun “subsidiya.mf.uz” platformasini Qo‘mitaning “FAIRTECH” axborot tizimiga integratsiya qilish</p> <p>3. Mahalliy hokimliklar va davlat organlarining hujjatlarini «ex-post» usulida masofadan turib elektron tizim orqali raqobat muhitiga ta’sirini baholab borish uchun “edo.ijro.uz” va “e-qaror” platformalarini Qo‘mitaning “FAIRTECH” axborot tizimiga integratsiya qilish.</p>	B.Tillabekov, “Raqamli transformatsiya va autsorsing markazi” DUK, D.Nasirova
35.	Davlat xaridlari, boshqa turdagи savdolar (e-auksion va boshqa) hamda elektron tijorat platformalari (marketpleyslar) savdo jarayonlarining shaffofligi va teng raqobatni ta’minalash.	Davlat xaridlari, va boshqa onlayn savdolarda raqobatga qarshi hatti-harakatlarni, til biriktirish va kartel kelishuvlari va manfaatlar to‘qnashuvini <b>onlayn tarzda aniqlash (bunda sun’iy intellektga asoslangan yechimlaridan foydalinish)</b> imkoniyatini beruvchi dasturiy ta’minotini beta versiyasini ishlab chiqish.	B.Ochilov B.Boboxonov

T/ r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Mas'ul ijrochilar
		<p><b><i>Ma'lumot uchun:</i></b> bugungi kunda shu kabi dasturiy ta'minotlar turdi davlatlarda monopoliyaga qarshi organlarida, shu jumladan, Rossiyaning FAS ("Sifrovoy kot"), Braziliyaning CADE (Project Cerebro), Filippin Raqobat organi (Bid rigging screening tool) qo'llab kelinmoqda.</p>	